



SHE'RIY MATNLAR TARJIMASIDA SEMANTIK TRANSFORMATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI

Mahamatqulova Dilnoza Rustamjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti sinxron tarjima yo'nalishi
magistratura 2-bosqich talabasi dilnozamahamatqulova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18438278>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 38-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 31-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

She'riy tarjima, semantik transformatsiyalar, tarjima nazariyasi, generalizatsiya, konkretizatsiya, modulatsiya, ekvivalentlik.

ABSTRACT

Ushbu maqola she'riy matnlar tarjimasida yuzaga keladigan semantik o'zgarishlarni tahlil qiladi. She'riy matnlar badiiy matndan farqli o'laroq tarjima qilinadi va bunda tarjimondan nafaqat matn mazmunini yetkazish, balki ohang va ritmni ham moslash talab etiladi va bunday holatda transformatsiyalar ishlatiladi. Semantik transformatsiyalar-tarjima jarayonida asl matn mazmunini saqlab qolgan holatda lingvistik va madaniy tafovutlarni yo'qotish uchun ishlatiladi va ular asosan generalizatsiya, konkretizatsiya, modulatsiya va shu kabi o'zgarishlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu o'zgarishlar yuqorida ta'kidlanganidek, she'rning ohang va ritmini ham saqlashga ko'mak beradi. Maqolada tarjima nazariyasidagi yondashuvlar, semantik transformatsiya turlari va ularga amaliy misollar ko'rib chiqiladi va yoritiladi. Tadqiqot natijalari tarjimonning semantik transformatsiyalarni to'g'ri qo'llash va orqali ekvivalentlikni ta'minlash zaruratini ko'rsatadi. Semantik transformatsiyalar she'riy matnlar tarjimasini osonlashtiradi va tarjima sifatini oshirishga yordam beradi..

jima bu asl matn mazmunini yo'qotmagan holatda, tillar o'rtasidagi lingvistik va grammatik farqlarni, hatto, madaniyatni hisobga olgan holatda maqsad tiliga tarjima qilishdir. Tarjima faqatgina ekvivalent so'zlarni topish bilan bajarilmaydi, balki, matnning semantik mazmunini saqlab qolgan holatda, kommunikativ vazifasini yo'qotmay tarjima qilinadi. She'riy matn esa tarjimaning eng murakkab yo'nalishlaridan biridir. Chunki she'riy matnlar, metaforalarga, badiiy obrazlarga boydir. She'rni tarjima qilish bilan birga ritm va ohangni ham saqlab qolish darkor. Semantik transformatsiyalar tarjima matnda ma'noni to'g'ri yetkazib berishga yordam beradigan usullardir. Ular generalizatsiya (umumlashtirish), konkretizatsiya(ma'noni aniq ifodalash), modulatsiya(ma'noni qayta ifolash) kabilar kiradi. Bular she'riy tarjimada ma'noning obrazning qayta ifodalanishiga o'z hissasini qo'shadi. Ushbu

maqola semantic transformatsiyalarning she'riy matndagi o'rnini ifodalashga, ularning nazariy asoslarini chuqur o'rganishga qaratilgan.

Metodologiya. Ushbu maqolada nazariy-tahliliy metodlar qo'llangan va ularning har biri ilmiy asoslangan nazariy manbalardan misollar berib tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida lingvistik tahlil yondashuvi qo'llangan bo'lib, u ingliz va o'zbek tadqiqotchilarining maqolalari va kitoblari asosiy material sifatida qo'llanilgan. Nazariy tahlil qismida esa semantik transformatsiya bo'yicha ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada taqqoslash metodi ham qo'llanilgan va buni transformatsiya turlari orasida va ularning misollarini ingliz va o'zbek tillar orasida taqqoslab o'rganilgan. Bu esa tarjimonning qo'llaydigan transformatsiyalarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu qatorga, ya'ni tarjima matnlar misollarini ko'rib chiqishda tahliliy metodni ham qo'shsak bo'ladi, chunki har bir misol tahlillar bilan yoritilgan.

Natijalar. O'zi asli semantika nima ekanligiga to'xtalsak, bir qancha fikr va mulohazalarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. "Semantika sohasining maqsadi — ma'nolarni kichik birliklarga, ya'ni sema yoki semantik xususiyatlar deb ataladigan qismlarga ajratishdir. Bu jarayon so'zlarning ma'nosini segmentlarga bo'lish, o'xshash ma'noga ega so'zlarni va qarama-qarshi ma'noga ega so'zlarni farqlash imkonini beradi." (Abdullayeva, 2024) Ushbu fikrda aytilganidek, semantika tilshunoslikdagi bir soha bo'lib, so'zlarni, iboralarni va hatto gaplarni o'rganadi va ma'nosini tahlil qilishga e'tibor qaratadi. Semantik transformatsiyalar va ularning she'riy matnlar tarjimasidagi ahamiyati haqida so'z bordi endi esa ularning turlarini ko'rib chiqsak.

Konkretizatsiya (Concretization) bu asl matnda uchraydigan kengroq ma'noli birikmalar yoki abstrakt tushunchalarni, ya'ni tarjimada to'g'ridan to'g'ri variant topib bo'lmaydigan tushunchalarni torroq, aniqroq ma'nodagi so'z yoki birikma bilan almashtirish usuli hisoblanadi. Bu yondashuv asosan polisemantik so'zlarni tarjima qilishda qo'llaniladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada shunday fikrlar ham mavjud: "Concretization is the process of making something more specific, detailed, or definite. It often refers to turning abstract ideas or general concepts into something tangible, clear, or practical." (Rakhimov, 2025) Misol uchun, ingliz tilidagi "The sky was full of stars" gapini olsak, u so'zma so'z "Osmon yulduzlarga to'la edi deb tarjima qilinadi. Lekin konkretizatsiyani qo'llab tarjima qiladigan bo'linsa, "Tun osmoni minglab porlab turgan yulduzlarga to'la edi" deb yulduzlarning minglab ekanini, porlab turganini aniqlashtirib berish mumkin. Bu haqida shuningdek, Konkretizatsiya — bu tarjimada manosi umumiy bo'lgan so'zni uning **aniq, tor ma'nodagi ekvivalenti bilan almashtirish** jarayoni bo'lib, matnning semantik aniqligi va o'quvchi tushunchasini oshiradi (Kasimova & Safarova, 2025) degan fikrni ham ko'rishimiz mumkin.

Umumlashtirish (Generalization) bu yondashuv o'z o'rnida konkretizatsiyaga qarama-qarshidir, ya'ni bu asl matnda berilgan torroq, aniq so'z va iboralar o'rniga keng ma'nodagi, umumiy tushunchalarni qo'yish orqali ma'noni yanayam kengaytirishdir. Bu usul asl matndagi tor tushunchani tarjima tilida keng, mazmun jihatidan tushunarli va sodda qilish maqsad qilinganda, yoki tor ma'nodagi so'zga mos ekvivalent topilmagan holatda ishlatiladi. Bu yondashuv *ko'plab olimlar, tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan va fikrlar bildirilgan. Masalan, Molina va Hurtado Albir quyidagi fikrni bildirgan: "Generalization is to translate a term for a more general one, whereas, particularization is the opposite, e.g., the English translation of *guichet, fenêtre* or *devanture* by *window* is a generalization."* (2002)

-Semantik modulyatsiya (Semantic modulation) ham semantik tarjimaning bir usuli hisoblanadi va u tarjimada, ayniqsa she'riy tarjimalarda muhim ro'l o'ynaydi. Semantik modulatsiya — tarjimada mazmunni saqlagan holda **asosiy ifodani qayta tuzish va leksik vositalarni o'zgartirish** orqali amalga oshiriladi, bu holatda tarjimon literal ekvivalent o'rniga kontekstga mos strategiyani tanlaydi (KazNU, n.d.). Semantik modulyatsiya bu tarjimada asl matnni tarjima qilayotganda uni grammatikasini, leksikasini, tasvir uslubini yoki ifoda jihatini o'zgartirish orqali ma'noni saqlab qolib tarjima qilish uslubi hisoblanadi.

Muhokama. Asosiy qismda ko'rib chiqilgan transformatsiyalar tarjima jarayonida maqsad tiliga tarjima qilinayotgan matnni mazmunini saqlashga yordam berishi Tarjima nazariyasi doirasida transformatsiyalar tarjimon uchun **faqat mexanik almashtirishlar emas**, balki ma'no darajasida murakkab tillararo moslikni ta'minlovchi strategiyalar deb talqin qilinadi. Ular maqsadli til mazmunining **semantik ekvivalentligini** saqlash uchun qo'llanadi, shu bilan birga tarjima matnining tabiiyligi ham oshadi. Tarjimonning maqsadi ushbu transformatsiyalardan to'g'ri foydalana olish va semantic ekvivalentlik va madaniy moslikni ta'minlashdir.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, konkretizatsiya, generalizatsiya va modulatsiya semantik transformatsiyaning eng ko'p tarqalgan yondashuvlaridir. Ushbu maqola esa ularni nazariy tahlil qildi va misollar orqali muhokama qildi. Maqola mazmunidan shunisi aniqki, bu transformatsiyalar tarjimaning sifatini oshirishda, aniqligini ta'minlashda, maqsad tili auditoriyasi uchun ham tushunarli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ular tarjima jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga til va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga ham yordam beradi.

Qo'llanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abdullayeva, V. (2024). Structural-semantic study of linguistic units (p. 22)
2. Molina, L., & Hurtado Albir, A. (2002). Translation techniques revisited: A dynamic and functionalist approach. *Meta*, 47(4), 498–512.
3. Rakhimov, A. (2025). Concretization in Translation Theory. *Journal of Translation Studies*. (manba maqola, 2025)
4. Zhai, Y., Safari, P., Illouz, G., & Allauzen, A. (2019). Towards Recognizing Phrase Translation Processes: Experiments on English–French.
5. Kasimova, N. F., & Safarova, M. (2025). Lexical transformation and its types (PDF). *Genius Journals*.
6. KazNU. (n.d.). Basic translation transformations